



## TASVIRIY KOMPOZISIYA MASALALARI VA MANZARA JANRI (O`ROL TANSIQBOYEV IJODI BO`YICHA)

Eshimova Shaxzoda

*Qarshi davlat universiteti talabasi.*

Eshimova Shakhzoda

*A student of Karshi State University*

Ushbu maqolada kompozisiya masalalari hamda manzara janri haqida mashhur rassom O`rol Tansiqboyev asarlari misolida keltirilgan. Kompozisiya masalalari va manzara janrining muhim jihatlari, asarlarning mazmuni yoritilgan.

This article presents examples of composition and genre of landscape paintings by famous artist Ural Tansikbaev. The issues of composition and important aspects of landscape genre, as well as the content of the works are highlighted.

O`rol Tansiqboyev hayoti davomida o`zining ijodiy izlanishlari sababli, tasviriy san'atda o`zbek manzarashunoslik sanatini butunlay o`zgartirgan, plener etyudi doirasidan chetlashib, manzara – kartinasini yaratgan rassom hisoblanadi.

XX asrlarda u milliy manzarashunoslik san'atini yanada rivojlanirgan hamda yangi asrda esa uning retrospektiv yubileyi ya`ni ma'lum bir vaqtida o`zgargan ma'lumotlarni batafsil tahlil qilinishi - o`zbek milliy tasviriy sanatini zamonaviylik bilan bog`lovchi, izchillikni tiklovi muhim hodisalardan biri bo`ldi. Yillar o`tgani sayin, uning asarlari tomoshabinlarga katta estetik zavq hadya etishi bilan birga, o`z davriga xos sanatga qo`ygan qadami bilan ham o`lchanib, ustaning tarixiy ahamiyatida yangi ma'noga ega bo`ladi.

Tansiqboyevning mukammal rivojlanish yo`lida uning o`sha yillar qilgan ijod namunalari, 1951 yil - "Ona yer" va "Issiq ko`l oqshomi" kabilar tasdiqlaydi. Ularda, go`yo, ikki mohiyat kurashi ketayotganday - o`sha darvlarga xos illyustrativ intilishlar, ortiqcha bo`laklar hamda tabiat timsolining yuzaki ifodasi, shuningdek, chuqur falsafiy-sheriyl kechinmalar sari izlanish.

"Toxiatosh" va "Sirdaryo" kabi manzaralari ham alohida diqqatga sazovor hisoblanadi. O`rol Tansiqboyev o`z ijodining yangi bo`sag`asida turib, o`zbek manzarashunoslik tasviriy sanatiga butunlay o`zgartirish olib kirishi lozim bo`lgan. Buning uchun o`z ustida kata izlanish va amaliy tajribalarni amalga oshirgan.

Eng yaxshi manzaralari, ayniqsa "Qayraqum GESida tong"da umuminsoniy izlanishlar namoyon bo`ladi.

Rassomga shuhrat keltirgan ushbu asarlardan biri bo`lgan "Qayroqum GESi tongi" hozir kunda Moskvadagi Sharq xalqlari Davlat sanat muzeysiда saqlanmoqda. Bu asarda,





yuqoridan turib kuzatilgan elektrostansiya va suv ombori lirik ohangda tasvirlangan bo`lib, undagi qurilishlar tabiat bilan hamoxang uyg`unlashib ketgan.

Surat markazidagi erta tongda zangori tusga kirgan elektrostansiya betoni cheti ko`rinmas ulkan dengizni mahkam tutib turgandek tuyuladi.

Asarni kuzatgan odam sahroga jon bag`ishlovchi mo`jizakor manzaraning sehrli olamiga kirib qoladi. Unda olislarga bo`y cho`zgan musaffo dengiz qariga ko`milgan shodlik va nafosatga boy tong yorishib kelayotganligini qalbdan xis etadi. Bu suratda tasvirlangan narsalar juda oddiy, lekin sehrlidir. Chunki, dengiz, osmon va erlarning bepoyonligi koloritning jozibadorligi, mayinligi kishini o`ziga tortadi. Manzarada suv, cho`l, tog` va fazoning yirik hamda umumlashgan holda berilganligi sababli u nihoyatda salobatli ko`rinadi.

XX asrning 60-70 yillarida rassom monumental birikish hosil qilgan hamda jadal ranglar uyg`unligiga ega erkinroq ijodiy uslubdagi tasvir talqinini yaratishga muvaffaq bo`ladi. Unda go`yoki, XX asrning 30-yillari ruhiy izlanishlari gavdalanganday ko`rinadi go`yi. “Angren-Qo`qon tog` yo`li”, “Pomirdagi Qoraqo`l”, “Oloy vodiysi”, “Oqshomda Panj” polotnolarida tabiat orqali hissiyotlar o`zlashtiriladi, bamisolli ochiq osmon ostida erkinlikka takroran yuborilgan keng maktub kabi.

O`rol Tansiqboyev o`z ijodini mushkul, og`ir yillarda, dunyoda urush va boshqa dramatik hodisalar yuz bergen vaqtarda hayot kechirgan. Rassom ularni chetlab o`tmay, ularda sanatning go`zal sahifalariga bo`lgan ishonchni ochib bergen. U har doim o`z davrining hayot masalalariga munosib tarzda javob qaytarganligi sababli uning eng sara asarlari bugungi kunda ham milliy madaniyatimiz durdonasi sifatida qadrlanib kelinmoqda. Bir so`z bilan aytganda O`Tansiqboyevning asarlari bizni Vatanga muhabbat, go`zallikdan zavqlanishga chorlaydi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYORLAR:

1. Nabijonova Iroda, “Manzara janrida ijod qilgan rassomlarning kompozitsiyalarining taxlili” 2024 yil

